

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
334.72.012.64:330.322

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O‘G‘LI

KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. U.V. Gafurov

TOSHKENT – 2025



MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1. Kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishning konseptual asoslari.....	12
1.2. Kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishning omillari va asosiy tamoyillari	23
1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini rag'batlantirish mexanizmi.....	41
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	53
II BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	55
2.1. O'zbekistonda kichik biznes innovatsion faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari.....	55
2.2. Kichik biznes innovatsion faoliyatining rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar.....	67
2.3. Urgut Erkin Iqtisodiy Zonasi direksiyasi tarkibidagi kichik korxonalarda innovatsion faoliyati tahlili.....	77
2.4. Kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	87
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	108
III BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	110
3.1. Kichik biznes subyektlari faoliyatida innovatsion ishlanmalarni joriy etishni rag'batlantirish.....	110
3.2. Kichik biznes korxonalarida innovatsion jarayonlarni faollashtirishni qo'llab-quvvatlash vosita va dastaklari.....	122
3.3. Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish mexanizmlari tarkibida iqtisodiy manfaatdorlik tamoyilini kuchaytirish.....	135
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	148
XULOSA.....	150
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	155

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashtirish jarayonida mamlakat iqtisodiyotida, ishlab chiqarish omillaridan maqsadli foydalanish yoʻnalishlarini shakllantirish va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish jarayoni innovatsiyalarga bevosita bogʻliq. Ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalarni qoʻllashda inson omilining roli borgan sari cheklanish tavsifiga ega boʻlib, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining ortishi hisobiga intensiv iqtisodiy oʻsishga erishish imkoniyatlari yuzaga keladi. Aksariyat hollarda innovatsion faoliyat mahsulot, ish va xizmatlar sohasidagi yangiliklarga asoslanadi. Innovatsiyalar, sifat jihatidan yangi bozorlarni shakllantirishga, ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga hissa qoʻshishga imkon beradigan tadbirkorlik faoliyatiga asos yaratadi. Oʻz navbatida innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyati samaradorligini taʼminlashga va uning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirishga olib keladi.

Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishni taʼminlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga eʼtibor qaratilmoqda. “Kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan koʻplab davlatlarda ish oʻrinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va oʻrta biznesdan boshlangan”¹. Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi loyihasiga muvofiq “KBXTni rivojlantirishning maqsadi mamlakat aholisining umumiy daromadlaridagi tadbirkorlik ulushini 70 foizga yetkazish hisoblanadi”. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion omillardan foydalanishni yanada takomillashtirish, faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori boʻlgan kichik biznes

¹ Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga koʻtarish – ustuvor vazifamizdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida oʻtkazilgan uchrashuvdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6561>